

MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOVNING MAORIF TIZIMINI ISLOH QILISH HAQIDAGI G‘OYALARI

Sultonova Shaxnoza Sadriddinovna

Buxoro davlat universiteti,

Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15620280>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston jadidlari orasida yirik siymo, adib, notiq, pedagog, qomusiy bilim egasi, jamoat arbobi Munavvarqori Abdurashidxonovning (1878-1931) maorif tizimini isloh qilish haqidagi g‘oyalari tahlili amalga oshirilgan. Maqolada Munavvar qorining jadid maktablarini tashkil etish, milliy ta’lim tizimini rivojlantirish hamda jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, Munavvarqori Abdurashidxonovning siyosiy, ma’naviy - ma’rifiy g‘oyalari, barkamol avlod, komil inson tarbiyasi, milliy ta’lim, milliy axloq, milliy tarbiyaning o‘rni va rolini talqin qilgani uning bugungi kun ta’lim va madaniyat rivojiga ta’siri muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: Munavvarqori, ma’rifatparlik, ma’naviyat, maorif, madaniyat, usuli jadid, usuli savtiya, adabiyot.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) Turkiston jadidlari orasida yirik siymo, adib, notiq, pedagog, qomusiy bilim egasi, jamoat arbobi edi.

Vatanimiz, millatimiz ozodligi va mustaqilligi yo‘lida qurbon bo‘lgan xalqimizning fidoyi, aziz farzandi Munavvarqori Abdurashidxonovning bebaho asarlari, nazmiy va nasriy meroslari, ijtimoiy – falsafiy g‘oyalari o‘zbek xalqining ma’naviyati va ma’rifatini, milliy qadriyatlari va ongini yuksaltirish yo‘lida xizmat qilib, avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalab kelmoqda.

Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Munavvarqori Abdurashidxonovning siyosiy, ma’naviy - ma’rifiy g‘oyalari, barkamol avlod, komil inson tarbiyasi, milliy ta’lim, milliy axloq, milliy tarbiyaning o‘rni va rolini talqin qilgani o‘z zamonida va hozir ham qadrlil, o‘z ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmagan.

Munavvarqori maktab ta’limini isloh qilish, xalqni ma’rifatli qilish va taraqqiyot yo‘liga olib chiqish to‘g‘risida Ismoilbek Gasprinskiyning g‘oyalarini so‘zsiz ma’qullab, qabul qildi.

O‘zining butun hayotini ana shu g‘oyani Turkistonda amalga oshirishga bag‘ishladi.¹

Munavvarqori Maorif va madaniyat bog‘chasining birinchi darvozasi- maktabdur deydi.

Yer yuzidagi maorifli millatlarning har birlari madaniyat bog‘chasina shu darvozadangina kirmishlar, ya’ni maorif va madaniyat yo‘lini safar programi yasaganda birinchi moddasina shul «maktab ochmak» masalasini qo‘yishlar, ishlarni shul «maktab»dangina boshlamishlar.² Shuning uchun ham Munavvarqori usuli jadid maktablari faoliyatini teran o‘rganib, yangi usuldagi maktablarni tashkil etish masalasini kun tartibiga chiqardi. Sababi, ongda, fikrlashda, maorifda o‘zgarish qilmay turib, siyosatda o‘zgarish qilib bo‘lmasdi. Dushmani yengish, o‘zini har jihatdan himoya qilishning eng asosiy quroli ma’rifatli odamlardan tashkil topgan yangi jamiyatni tashkil qilish edi.

¹ Қосимов Бегали. Миллий уйғониш. Туркистон уламаси. –Тошкент: Маънавият, 2002.–Б. 190.

² Маърифатга фидойи умр. //Тафаккур. 1995.- № 3-4. –Б.99.

Bunga esa maktab va madrasa tizimida inqilob yasamay turib erishish mumkin emasdi.

Shuni yaxshi tushunib yetgan Munavvarqori 90-yillar Ismoilbek Gaspirali tomonidan Qrimda asoslangan «usuli jadid», «usuli savtiya» (tovush usuli)dagi yangi maktabni o'z yurtida ochishga bel bog'laydi. Ammo unga chor harbiy ma'muriyati, rus ziyoli missionerlari, mahalliy musulmon diniy mutaassiblari qarshilik qiladi. Juda katta mehnat va turli ta'qiblarga bardosh berish evaziga, Turkiston o'lkasida bunday maktabni birinchi bo'lib, Munavvarqori 1901-1903-yillarda o'z hovlisida ochdi.

Bu maktab sho'ro davrida «Muxtoriyat», «Birinchi may» va «Lenin»³ maktabi deb atalgan. Keyinchalik Toshkent shahrining turli dahalarida bunday maktablar ish boshladi.

1906-yili esa, yangi usul maktabi sohasidagi faoliyatini o'z uyining tashqari hovlisida davom ettiradi, oradan ko'p vaqt o'tmay maktab uchun ikki xonali qo'shimcha bino qurdiradi.

Qisqa muddat ichida bu maktab dovruqi ortadi, bolalar soni ko'payib ketadi. Natijada Munavvarqoriga hamma-halla bo'lgan Buvaxon to'ra Poshshaxon o'g'lining tashqi hovlisida ham maktabning ikki sinfli sho'basini ochadi. Bu yerda 1-2 sinflarni bitirgan bolalar, o'qishni Munavvarqori hovlisida davom ettirganlar.⁴

Bunday maktablarda kundalik o'quv-tarbiyaviy ishlaridan tortib, yillik bitirish imtihonlarini uyushtirishgacha barchasini buyuk murabbiyning o'zi boshqarardi. Bu maktablarda bolalar o'qish-yozishni ikki yilda o'rganadi. Vaholanki, qadim-eski an'anaviy maktablarda bunga besh yil vaqt sarflanar edi. Munavvarqori tashkil qilgan jadid maktabi ikki bosqichli edi. Birinchi bosqich- to'rt yillik boshlang'ich ta'lim maktabi bo'lib, unda bolalarga umumiy, diniy va dunyoviy bilim asoslari o'rgatilardi. Ikkinchi bosqich-yetti yillik maktab bo'lib, unda boshlang'ich ta'lim maktablari uchun muallimlar va mahalla masjidlariga imomlar tayyorlanardi.

Bunday maktablarni tugatgan o'smirlar savdo-sotiq va kundalik turmush uchun zarur amaliy bilim va oliy ma'lumot olish uchun madrasalarda va xorijda o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lardilar. Munavvarqorining maktabida 1915-yilda 150 o'quvchi saboq olgan, ularning 30-35 foizi kambag'allarning farzandlari bo'lib, bepul o'qitilardi. Ular o'quv dasturlari, qurollari bilan bepul ta'minlangan. Qolganlari esa, baholi qudrat, o'qish uchun har oyda 50 tiyindan bir yarim so'mgacha pul to'lagan. Ba'zi boy otalar ikki so'mdan pul berib turgan. Shuningdek, bu maktabga Munavvarqori va uning safdoshlari tashkil etgan «Ko'mak» musulmon xayriya jamiyati ham har oyda 50 so'm yordam ko'rsatgan.⁵

Maktabning o'ziga xos qoidasi mavjud bo'lgan. Unda tartib-intizomga katta e'tibor berilgan. Bolalarga jazo va tanbeh berish choralari: yengil ogohlantirish, burchakka turgazish, darsdan so'ng olib qolish, maktabdan chiqarish ham ko'rsatilgan. Maktab xonalari yorug' bo'lib, ularda to'rt kishilik parta, sinf doskasi, o'qituvchi uchun stol va stul bo'lgan. Devorga esa har xil jadval, geografik xarita, qushlarning rasmi osilgan. Sinf jurnalida bolalarning davomatiga besh ball baho qo'yib borilgan. Maktabda o'qituvchi va o'quvchilar har kuni navbatchilik qilgan.

³ Абдурашидхонов Мунавварқори. Хотираларимдан.-Тошкент: Шарқ, 2001. –Б.17.

⁴ Комилжон Ҳашимов, Санобар Нишонова. Педагогика тарихи. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2005.-Б. 21-22

⁵ Чориев Анвар. Инсон фалсафаси. –Тошкент: Ўзб. Файласуфлари миллий жамияти, 2007. –Б. 320-321.

Bir kunda 50 minutdan uchta dars o'tilgan. O'n minutdan bir soatgacha kichik va katta tanaffuslar joriy etilgan. Katta tanaffusda alohida ajratilgan joyda o'quvchilar o'z o'qituvchilari rahbarligida namoz o'qiganlar.⁶

Munavvarqori dastlab Qrim va Tataristondagi o'qituvchilar tuzgan dastur va adabiyotlardan foydalanadi. Ammo bu «... tildagi adabiyotlarning o'quvchilar u yoqda tursin, hatto muallimlarning o'zi til jihatidan tushunishi qiyin bo'lgani uchun bu usulni tark etib, eski usullarni foydalik topib, anga ruju' etdilar. Bunga sabab na o'ldi? Jumla makotibi islomiyag'a yarag'on usuli bilan savtiya Turkiston maktablarina yaramadimi?

Ul vaqtlarda Turkiston musulmonlarining gumonlaricha, usuli savtiya yolg'iz Ibrohim Haqqiyning «Aqoid» ila «O'qu Qur'onni yaxshilab» misrasini ko'b zikr etgan totorcha bir «Tajvid» manzumadan iborat o'lub, hamma maktablarda, hatto ko'chalarda turluk savtlar ila ikki risolaning o'qita boshlamishlar edi. Ul risolalar o'z tillarida o'lmaydig'indan ma'nosini bolalar tugul muallimlarning o'zlari ham durust bilmas edilar.....»⁷

Ammo oradan bir oz vaqt o'tib, aksari maktablar yopila boshladi. Asosiy sabab darsliklar va qo'llanmalarning yetishmasligi, o'qituvchilarning « usuli savtiya» metodini yaxshi bilmasliklari edi.

Ana shu ehtiyoj bois Munavvarqori « usuli savtiya» maktablari uchun suv va havodek zarur bo'lgan darslik va dastur ishlashga kirishdi.

Munavvarqorining jadid maktablari uchun tovush usulida darsliklari «Adibi avval» («Birinchii adib», 1907), «Adibi soni» («ikkinchi adib» o'qish kitoblari) chop etildi.

Munavvarqori nomi faqat Turkistondagina mashhur bo'lmay, balki O'rta Osiyo, Rossiya musulmonlari uchun tabarruk edi.⁸

REFERENCES

1. Қосимов Бегали. Миллий уйғониш. Туркистон уламоси. –Тошкент: Маънавият, 2002.-Б. 190.
2. Маърифатга фидойи умр. //Тафаккур. 1995.- № 3-4. –Б.99.
3. Абдурашидхонов Мунавварқори. Хотираларимдан.-Тошкент: Шарқ, 2001. –Б.17.
4. Комилжон Ҳашимов, Санобар Нишонова. Педагогика тарихи. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2005.-Б. 21-22
5. Azamatovich, X. L. (2021). The Concept of Heart In The Treatises Of Hakim Termizi. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE. PHILOSOPHY AND CULTURE*, 2(3), 63-67.
6. Хаитов, Л. А. (2014). Значение эстетического воспитания в развитии личности студента педагогического вуза. *Наука. Мысль: электронный периодический журнал*, (10), 40-44.
7. Azamatovich, X. L. (2023). Hakim Termizi-Theoretician of Knowledge on Nafs. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(11), 32-38.

⁶ Холбеков С. Мунавварқори.//Мулоқот. 1997.- №1.-Б. 24-25.

⁷ Абдурашидхонов Мунавварқори. Танланган асарлар.-Тошкент: Маънавият, 2003.-Б. 34.

⁸ Умаров Эркин, Абдуллаев Махмуд . Маънавият асослари.-Тошкент: Шарқ, 2005. –Б.122.

8. Xaitov, L. (2024). ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙ МЕРОСИДА ИЛМ МАСАЛАСИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 45, 45.
9. Azamatovich, X. L. (2021). The Concept of Heart In The Treatises Of Hakim Termizi. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE. PHILOSOPHY AND CULTURE*, 2(3), 63-67.
10. Azamatovich, XL (2023). Hakim Termizi-Theoretician of Knowledge on Nafs. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(11), 32-38.
11. Xaitov, L. A., Kuzyev, N. A., & Rajabova, R. Z. (2024). Ecological problems and the role of ecological culture in their solution. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 120, p. 01033). EDP Sciences.
12. Чориев Анвар. Инсон фалсафаси. –Тошкент: Ўзб. Файласуфлари миллий жамияти, 2007. –Б. 320-321.
13. Холбеков С. Мунавварқори.//Мулоқот. 1997.- №1.-Б. 24-25.
14. Абдурашидхонов Мунавварқори. Танланган асарлар.-Тошкент: Маънавият, 2003.- Б. 34.
15. Sadriddinovna, S. S. (2024). The Role Of The Jadids In Elevating The Spirituality Of The People Of Turkestan. *Jurnal ISO: Jurnal Ilmu Sosial, Politik Dan Humaniora*, 4(2).
16. Умаров Эркин, Абдуллаев Махмуд . Маънавият асослари.-Тошкент: Шарк, 2005. – Б.122.
17. Sohibovna, R. R. N. (2025). THE ISSUE OF MORALITY IN THE PHILOSOPHICAL HERITAGE OF IBN SINA AND ITS IMPORTANCE IN THE EDUCATION OF YOUNG PEOPLE. *EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements*, 1(5), 690-696.
18. Soibovna, R. R., & Hodjievna, N. G. (2019). The Study of Spiritual Heritage of Khoja Ismat Bukhari. *International Journal on Integrated Education*, 2(5), 173-176.
19. Haydarova, H. (2025). THE PLACE OF SUFICIAL EDUCATION IN MORAL EDUCATION. *Modern Science and Research*, 4(5), 1283-1286.
20. Rajabova, R., & Sobirova, S. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA XATTOTLIK SAN'ATI VA XATTOTLIK MAKTABI NAMOYANDALARI. *Modern Science and Research*, 4(5), 1287-1291.
21. Zakirovna, R. R. (2025). The Depiction of Tolerance in Sufi Sources. *Indonesian Culture and Religion Issues*, 2(1), 5-5.
22. Rajabova Rohila Zakirovna, & Norpo'latova Dinora Nutfullaeva. (2024). YOSHLARDA MUOMALA MADANIYATINING SHAKLLANISHIDA HADISLARNING O'RNI. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(5), 101–103.